

# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 9

2025  
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google  
Scholar

OPEN  
ACCESS

ULRICH'S WEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ  
Российский экономический университет  
имени Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

1931  
TDSU  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ГЕОДЕЗИЧЕСКАЯ  
ИССЛЕДОВАНИЯ  
И ТЕХНОЛОГИИ

1931  
SLOM KARIMOV NOMIDDI  
TDSU  
TOSHKENT DAVLAT TEKHNICHKA UNIVERSITETI

1955  
TDSU  
TOSHKENT DAVLAT  
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU  
TOSHKENT DAVLAT  
AKHITTEKURA-QURILISH UNIVERSITETI

TJU  
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA INSTITUTI  
1991

TJU  
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA INSTITUTI  
1991



# **muhandislik & iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o'rinosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabeck Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbanov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyedtinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustii majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatalish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish .....	12
<b>Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li</b>	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari .....	19
<b>Usmonov Abbas Valijon o'g'li</b>	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises .....	23
<b>Sheraliev Axror Sodiqovich</b>	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish .....	30
<b>Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlari va huquqiy asoslari .....	37
<b>Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich</b>	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi .....	42
<b>Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li</b>	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari .....	46
<b>Kurbanova Raxima Jamshedovna</b>	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakarlarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati .....	49
<b>Narziyev Umidjon Baxrillayevich</b>	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar .....	54
<b>Marufhanov Davron Xasanovich</b>	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка .....	58
<b>Юсупов Асфандиёр Элдор угли</b>	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari .....	63
<b>Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich</b>	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiysi .....	67
<b>Kurbanov Jaloladdin Yuldasbayevich</b>	
"Intellektual multk", "Intellektual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtafigagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik .....	73
<b>N.D.Maxmudova</b>	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili .....	77
<b>Iskandarov Kudrat Shuxratovich</b>	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari .....	83
<b>Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich</b>	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi .....	87
<b>Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi</b>	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar .....	91
<b>Qosimova Lola Sultanovna</b>	
Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari .....	96
<b>Xursandov Komiljon Maxmatkulovich</b>	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar .....	100
<b>Rajabov Alibek Xushnudbekovich</b>	



Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....	106
<b>Primova Shakhnoza Komiljonovna</b>	
Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozoridagi rivojlanish tendensiyalari .....	110
<b>Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi</b>	
Mudofaa ehtiyojlari uchun harbiy ta'minot tizimini shakllantirishda Markaziy Osiyo davlatchiligining tarixiy xazina amaliyotlaridan foydalanish .....	115
<b>Seitlepesov Azamat Orazbayevich</b>	
Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review .....	120
<b>Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi</b>	
Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....	124
<b>Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li</b>	
Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili .....	131
<b>Ismoilov I.B., Qayumov J.A., Ismoilov F.B., Qo'idoshev E.I.</b>	
Mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi .....	137
<b>Baratov J.N.</b>	

# MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS



# MAHALLA INSTITUTI ASOSIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA TARGETLASH MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGI

**Baratov J.N.**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi

Email: [javlonbek.baratov97@gmail.com](mailto:javlonbek.baratov97@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish jarayonida mahalla institutining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, aholi ijtimoiy-iqtisodiy holatini aniqlashda va ehtiyojmand qatlamlarni belgilashda qo'llanilayotgan targetlash (maqsadli yordam) mexanizmlarining samaradorligi yoritib beriladi. Maqolada mahalla tizimi orqali aholi turmush darajasini o'rganish, yordamga muhtoj oilalarni aniqlash hamda davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari o'rganiladi. Shuningdek, mahalla instituti faoliyatida mavjud afzalliklar – aholiga yaqinligi, mahalliy muammolarni tezkor hal etish imkon – va ayrim muammoli jihatlar – subyektivlik, ma'lumotlarning shaffof emasligi – tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mahalla tizimini raqamlashtirish, ma'lumotlar bazasini takomillashtirish va targetlash jarayonini avtomatlashtirish kambag'allikni qisqartirishda muhim omil ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** kambag'allik, mahalla instituti, targetlash, ijtimoiy himoya, raqamlashtirish, samaradorlik.

**Abstract:** This article analyzes the role and importance of the mahalla institution in the process of poverty reduction in Uzbekistan. In particular, it highlights the effectiveness of targeting mechanisms (means-tested assistance) in identifying the socio-economic status of the population and determining vulnerable groups. The study examines how the mahalla system is used to assess living standards, identify households in need of support, and facilitate cooperation between state and community organizations. Furthermore, the advantages of the mahalla institution — such as its proximity to the population and ability to address local issues promptly — as well as challenges like subjectivity and lack of data transparency are analyzed. The findings show that digitalizing the mahalla system, improving databases, and automating the targeting process are crucial factors in reducing poverty.

**Key words:** poverty, mahalla institution, targeting, social protection, digitalization, efficiency.

**Аннотация:** В данной статье анализируется роль и значение института махалли в процессе сокращения бедности в Узбекистане. В частности, освещается эффективность механизмов таргетинга (целевой помощи) при выявлении социально-экономического положения населения и определении нуждающихся слоев. Рассматриваются вопросы изучения уровня жизни населения через систему махалли, выявления семей, нуждающихся в помощи, а также механизмы сотрудничества между государственными и общественными организациями. Кроме того, проанализированы существующие преимущества деятельности махалли — близость к населению, возможность оперативного решения местных проблем — и проблемные аспекты, такие как субъективность и недостаточная прозрачность данных. Результаты исследования показывают, что цифровизация системы махалли, совершенствование баз данных и автоматизация процесса таргетинга являются важными факторами в сокращении бедности.

**Ключевые слова:** бедность, институт махалли, таргетинг, социальная защита, цифровизация, эффективность.

## KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va aholining turmush darajasini oshirish masalalari davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Kambag'allikka qarshi kurash jarayonida aholining real ehtiyojlarini aniqlash va manzilli yordamni ta'minlash muhim ahamiyat



kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, mahalla instituti aholiga eng yaqin bo'lgan o'zini o'zi boshqarish organi sifatida kambag'allikni qisqartirish mexanizmlarida alohida o'rinn egallaydi.

Mahalla tizimi orqali aholining ijtimoiy ahvoli, ularning daromad manbalari va yashash sharoitlarini chuqr o'rganish imkoniyati mavjud bo'lib, bu esa yordamga muhtoj qatlamlarni samarali aniqlashga zamin yaratadi. Targetlash mexanizmlari, ya'ni manzilli yordamni to'g'ri yo'naltirish jarayonida mahalla institutining ishtiroti nafaqat resurslardan oqilona foydalanishga, balki yordamning haqiqiy muhtojlarga yetib borishiga xizmat qiladi.

Biroq amaliyatda mahalla faoliyatida bir qator muammolar ham kuzatilmoxda. Jumladan, subyektiv yondashuv, ma'lumotlarning yetarli darajada shaffof emasligi va ayrim hollarda yordamningadolatli taqsimlanmasligi kabi masalalar targetlash samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, mahalla institutining imkoniyatlarini yanada kuchaytirish, raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish va ma'lumotlar bazasini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish jarayonida mahalla institutining o'rnini chuqr tahlil qilish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini aniqlashda qo'llanilayotgan targetlash mexanizmlarining samaradorligini o'rganish hamda ularning amaliy natijalarini baholashdan iboratdir. Shuningdek, mahalla tizimi orqali manzilli yordam ko'rsatish jarayonida uchrayotgan muammo va kamchiliklarni aniqlash, mavjud tajriba va xalqaro yondashuvlarni solishtirish hamda mahalla faoliyatini raqamlashtirish asosida samaradorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish ko'zda tutiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHЛИI

So'nggi yillarda raqamlashtirish jarayoni va ijtimoiy himoya tizimi o'zaro kesishuvchi tadqiqot yo'nalishiga aylangan bo'lib, bu ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (UNDP, 2020) raqamlashtirish ijtimoiy himoya tizimlariga kirishni kengaytirish orqali inklyuziv rivojlanishni jadallashtirish imkonini berishini ta'kidlaydi. Jahon banki (World Bank, 2021) ham o'z hisobotida turli mamlakatlarda raqamli platformalardan foydalanish orqali aholining ehtiyojmand qatlamlarini samarali aniqlash va resurslarniadolatli taqsimlash tajribalarini keltiradi.

UNDP (2020) ma'lumotlariga ko'ra, raqamli texnologiyalarni ijtimoiy himoya tizimlariga integratsiya qilish jarayonlarni soddalashtiradi, xarajatlarni kamaytiradi va xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi. Jahon banki (2021) esa raqamli vositalardan foydalanish natijasida kambag'allik darajasini baholash aniqligi oshganini va resurslar manzilli taqsimlanishini qayd etadi.

O'zbekistonda mazkur yo'nalish ITIM (Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi, 2022) tomonidan keng o'rganilib, ijtimoiy himoyani raqamlashtirish bo'yicha samarali yondashuvlar ishlab chiqilgan. Karimov va Rasulov (2022) o'z izlanishlarida raqamli transformatsiya va ijtimoiy himoya o'tasidagi sinergetik ta'sirni ko'rsatib, yagona strategik yondashuv zarurligini asoslab bergen.

Mamlakat miqyosida "Temir daftar" dasturi raqamli ijtimoiy himoya mexanizmlarining muhim namunasi sifatida qaraladi. Strategik islohotlar agentligining (2022) baholashlari ushbu dastur va boshqa elektron reyestrlar yordamida yordam manzilliligi samarali ta'minlanganini ko'rsatadi. Qodirova (2023) tomonidan olib borilgan so'rovlar esa foydalanuvchilar ishonchi va qoniqish darajasi yuqori ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yildagi qarori mehnat bozorini monitoring qilish va ishsizlarni aniqlash metodologiyalarini belgilab berib, ijtimoiy himoyani raqamlashtirish jarayonlari uchun mustahkam huquqiy asos yaratgan (O'zbekiston Respublikasi VM Qarori, 2017).

Yangi bosqichda tizimni yanada rivojlantirish zarurati mavjud. ITIM (2022) ta'kidlaganidek, aholining raqamli ko'nikmalarini oshirish, infratuzilmani yanada takomillashtirish hamda ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish ijtimoiy himoya tizimini yanada samarali qilish imkonini beradi. Karimov va Rasulov (2022) ham ushbu masalalarda normativ-huquqiy bazani yanada mustahkamlash zarurligini qayd etadilar. Jahon banki (2021) esa raqamli yechimlarni mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga moslashtirish muhimligini urg'ulaydi. Pardaev va Pardaev (2020) tadqiqotlari ham mahalliy kontekstni chuqr anglash ijtimoiy dasturlar samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Normativ-huquqiy asoslarning ahamiyati alohida e'tiborga loyimdir. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, 2020) raqamli texnologiyalarni barcha sohalarga, jumladan, ijtimoiy himoyaga joriy etish bo'yicha davlat qarashlarini belgilab berdi. Bundan tashqari, "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonun ijtimoiy himoya tizimida raqamli yechimlarni qo'llashga huquqiy zamin yaratmoqda.

Xalqaro tajribalar ham O'zbekiston uchun muhim qiyosiy asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, CDKN (2013) iqlim o'zgarishi oqibatlarining kambag'allikka ta'sirini ko'rsatib, ijtimoiy himoyani moslashuvchan va raqamlashtirilgan tizimlar asosida tashkil etish zarurligini urg'ulaydi. Golubenko (2007) va Voronkova (2008) kabi olimlarning ishlari esa kambag'allikka qarshi kurash strategiyalarining nazariy va tarixiy asoslarini ochib beradi.



Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish ijtimoiy himoya tizimini tubdan o'zgartirish salohiyatiga ega. Shu bilan birga, kelgusida texnologiyalarni joriy etishda mayjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, yechimlarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish va huquqiy-institutsional asoslarni yanada mustahkamlash ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligini o'rganishga qaratilgan kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi.

Nazariy tahlil usuli – kambag'allik tushunchasi, uning kelib chiqish omillari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini o'rganishda hamda mahalla institutining tarixiy va huquqiy asoslarini tahlil qilishda qo'llanildi.

Qiyyosiy tahlil – O'zbekistonda va xorijiy davlatlarda qo'llanilayotgan targetlash mexanizmlari samaradorligini solishtirish orqali o'zaro umumiylik va farqlar aniqlab chiqildi.

Sotsiologik yondashuv – mahalla tizimi faoliyati, aholining ehtiyojmand qatlamlarini aniqlash jarayonida yuzaga kelayotgan muammo va kamchiliklarni o'rganishda qo'llanildi.

Statistik tahlil – rasmiy ma'lumotlar, davlat dasturlari hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlari asosida kambag'allik darajasi, yordam oluvchi oilalar soni va ularning ijtimoiy-iqtisodiy holatini raqamlar asosida o'rganishga xizmat qildi.

Tizimli yondashuv – mahalla instituti faoliyatini iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy mexanizmlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganishga asos bo'ldi.

Tadqiqot metodologiyasining bunday majmuaviy qo'llanilishi mavzuni har tomonlama tahlil qilish va ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mahalla qadimdan xalqimiz hayotining ajralmas bo'lagi, insonni jamiyatning faol a'zosi sifatida tarbiyalovchi makon bo'lib kelgan. U insonni bag'rikenglik, mehr-oqibat va xalqparvarlik ruhida tarbiyalash bilan birga, davlat va jamiyat o'tasida ishonch ko'prigi vazifasini bajaradi. Bugungi kunda O'zbekistonda 9 435 ta mahalla faoliyat yuritib, ularning o'ziga xos nomlari xalqimizning boy tarixi, ijtimoiy-siyosiy hayoti, iqtisodiy taraqqiyoti va madaniy merosidan so'zlab turadi.

Mahalla institutining roli tobora ortib bormoqda. Tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy yordam ko'rsatish kabi masalalarda mahallaning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning bosh maqsadi – aholiga munosib turmush sharoitini yaratish va xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirishdir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari sifatida mahalla nafaqat yashash hududi, balki aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, odob-axloqni targ'ib etish va jamiyat oldidagi mas'uliyatni kuchaytirishda ham muhim o'rinn tutadi.

So'nggi yillarda mahalla institutini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida aholiga yaqin va xalq xizmatidagi davlat tizimini shakllantirish, jamoatchilik boshqaruvini kuchaytirish vazifalari belgilangan. Ushbu hujjatda mahalla davlat va fuqarolar o'tasidagi "tayanch ko'pri" sifatida alohida qayd etilgan. Shuningdek, moliya, soliq, bandlik kabi idoralarning kamida 30 foiz vakolatini mahalla darajasiga tushirish hamda 100 dan ortiq davlat xizmatlarini "bir qadamda" ko'rsatish rejalashtirilgan. Bu esa fuqarolarga qulaylik yaratib, davlat boshqaruvini aholiga yanada yaqinlashtiradi.

2023-yil 21-dekabrdagi Prezident farmoniga asosan "mahalla yettiligi" tizimi joriy etildi. Unga mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori kiradi. Ushbu tizim mahalladagi muammolarni o'z vaqtida hal etish, ichki resurslarni aniqlash va ularni ijtimoiy xizmatlarga yo'naltirish imkonini bermoqda<sup>1</sup>.

2024-yil 1-yanvardan boshlab esa mamlakatimizda "Mahalla byudjeti" amaliyotga joriy etildi. Endilikda mahallalar jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig'ining bir qismi, davlat xizmatlaridan tushadigan yig'implarning 10 foizi hamda davlat mulkini sotish yoki ijara berishdan tushadigan mablag'larni o'z byudjetiga yo'naltirish huquqiga ega bo'ldi. Bu esa mahallalarning iqtisodiy mustaqilligini oshirib, ularni yanada faol va samarali bo'lishiga xizmat qilmoqda. Mahalla faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish maqsadida bir qator qonun va hujjatlar qabul qilingan. Yangi tahrirdagi Konstitutsianing 127-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy ahamiyatga molik masalalarni milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analarni inobatga olgan holda mustaqil hal qilish huquqiga egaligi belgilangan. Shuningdek, 2013 yil 14 aprelda qabul qilingan

<sup>1</sup> Shavkat Mirziyoyev: Aholi kayfiyati – islohotlarimiz va siyosatimizning ko'zgusi. Davlat rahbari ishtirokida 2022-yil 11-oktyabr kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi nutq



“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonun mahalla institutining asosiy faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekistonda mahallabay ishlash tizimi aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yaxshilashda muhim o‘rin tutmoqda. Uning asosiy vazifasi – mahallalarning “o‘sish nuqtalari” va “drayver” loyihamalarini aniqlash orqali aholini bandlik bilan ta‘minlash, ularni tadbirkorlikka jalb etish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida hududlarda barqaror rivojlanshni ta‘minlashdir. Mazkur yondashuv, eng avvalo, aholining daromadlarini oshirish va kambag‘allikni qisqartirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz tashabbuslari asosida bu borada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2024 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”gi farmon hamda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu hujjatlar nafaqat moddiy yordam ko‘rsatishni, balki iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘naviy va tarbiyaviy choralmanni uyg‘unlashtirish orqali muammoni kompleks hal etishni nazarda tutadi. Shu qatorda, Sayxunobod, Uychi, G‘ijduvon va Zarbdor tumanlari tajribasi O‘zbekistonda mahallalarni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishda noyob milliy model sifatida shakllanmoqda. Bu tajribalar aholini kambag‘allikdan chiqarishning samarali mexanizmlari sifatida boshqa hududlarda ham qo‘llanmoqda. Muhimi, yangi bosqichdagi davlat siyosati aholining faqat moddiy ta‘minotini kuchaytirish bilan cheklanmaydi. Unda inson kapitalini rivojlantirish, aholining bozor iqtisodiyoti sharoitida moslashuvchanligini oshirish, psixologik va motivatsion qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu tariqa, kambag‘allikni qisqartirish masalasi iqtisodiy islohotlar, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar hamda ijtimoiy adolat tamoyillari bilan uzviy bog‘liq holda olib borilmoqda.

#### 1-jadval. Mahalla institutining hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishdagi o‘rn<sup>2</sup>

Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda	Kambag‘allikni qisqartirishda
Hududni iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish, usul va vositalarni qo‘llashda samaradorligi yuqori, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni kamaytirish imkonini beradi	Eng kichik hududiy birlik sifatida iqtisodiy boshqaruvni osonlashtiradi, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha islohotlarni samarali amalga oshirish imkonini beradi
Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish orqali hudud iqtisodiyotini yaxshilash, ijtimoiy masalalarni hal qilish hamda aholi turmush sifatini oshirishga imkon yaratadi	Aholi muammolarini ovoragarchiliklarsiz mahallaning o‘zida hal etish orqali davlatning ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishini mahalla darajasida tashkil etish imkonini ko‘paytiradi
Davlat tomonidan katta mablag‘ sarflab yaratish mumkin bo‘lgan yangi ish o‘rinlarini mahalladagi kichik tadbirkorlik subyektlarini qo‘llabquvvatlash orqali yaratish mumkin	Aholining ehtiyojmand qatlamlarini hisobga olish, ular bilan manzilli ishslash imkoniyati yuqori
Mahallalarning ixtisoslashuvini chuqurlashtirish hududda mahsulot ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirish, budget-soliq tushumlarini ko‘paytirish imkonini beradi	Aholini daromad topishga ruhlantirish, kambag‘allikdan chiqishga undash, davlat tomonidan kambag‘allikni qisqartirish uchun yaratilgan instrumentlardan samarali foydalanish imkonini oshiradi

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar eng quyi tizimda mahallalarda o‘z aksini topadi. Mahallada aholi turmush darajasining o‘zgarishiga qarab islohotlarning natijadorligini baholash mumkin. Shu sababli, mustaqillik yillarida davlat o‘zining ma‘lum funksiya va vazifalarini fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga o‘tkazish siyosatini yuritdi. Tadqiqot davomida mahallabay ishlash tizimini samarali tashkil etish uchun amalga oshiriladigan ustuvor yo‘nalishlarni shartli ravishda 3 ta guruhga ajratdik:

1. Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta‘minlash.
2. Ijtimoiy muammolarni hal etish.
3. Mahallada infratuzilmani yaxshilash.

<sup>2</sup> <https://president.uz/uz/lists/view/5599>



Bundan tashqari, mahallabay ishlashni tadqiq qilishda mahallalar ixtisoslashuvini kuchaytirish yuqori samara berishi isbotlangan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida ixtisoslashtirish uchun avvalo xonadonlarni ma'lum turdagi mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki mahsulot yetishtirishga o'rgatish kerakligi aniqlandi. Qisqacha aytganda, mahallaning ixtisoslashuvini xonadonlar mashg'ulot turi belgilab beradi.

Mahallalarda turmush sharoitlarini yaxshilashda "Tashabbusli byudjet" loyihasi ayni muddao bo'lmoqda. Joriy yil ikkinchi yarmida bu loyihsada 9 ming 201 ta (98 foiz) mahalla ishtirot etdi. Ovoz berish yakunlariga ko'ra, 1 ming 221 ta mahalladagi 1 ming 418 ta loyiha g'olib deb topilib, ular uchun jami 1 trillion so'm mablag' o'tkazib berildi.

Prezidentimiz aholi talablarini qanoatlantirish va mahallalarni obod qilish maqsadida "Tashabbusli byudjet" loyihasini yanada kengaytirish taklifini bildirdi.

Shu bois, 342 ta mahalladagi 2 mingtadan ortiq ovoz to'plagan, lekin g'olib bo'Imagan 364 ta loyiha uchun qo'shimcha 335 milliard so'm ajratiladigan bo'ldi. Bundan tashqari, aholi salomatligi muhimligini inobatga olib, mahalla shifokorlik punktlari, oilaviy poliklinikalarni jihozlashga kelgusi yilda qo'shimcha 200 milliard so'm ajratiladi. Shu bilan birga, kelgusi yildan viloyat byudjetlari qo'shimcha mablag'larining 30 foizi ham "Tashabbusli byudjet" loyihaliga yo'naltirilishi aytildi. Bu – yana qo'shimcha 1 trillion so'm degani.

Umuman, kelgusi yildan boshlab, mahallalardagi infratuzilma uchun mablag'lar faqatgina "Tashabbusli byudjet" orqali aholi istagan loyihalarga ajratilishi belgilandi.

Tashabbusli byudjetlashtirish (ko'pincha "ijtimoiy byudjet" deb ham yuritiladi) — bu byudjet xarajatlari smetasini shakllantirishning moliyaviy vositasi bo'lib, u mablag'larni ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishga yo'naltirish imkonini beradi. U hudud, tuman, shahar yoki mahalla (munitsipalitet) aholisi ehtiyojlari va ijtimoiy ustuvor yo'nalishlarini aks ettirishni ta'minlaydi.




2-rasm. Fuqarolar tashabbuslari jarayonining bosqichlari.

Mahalla aholisi byudjet mablag'larining bir qismini qanday ishlatish masalasida o'z tashabbuslarini ilgari surish orqali mahalliy o'zini o'zi boshqarishda bevosita qatnashadi. Aholining bunday faolligi tufayli ular ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni taklif qilish, ular orasidan eng muhimlarini tanlab olish hamda keyinchalik loyihalarning amalga oshirilishini kuzatib borishda ishtirot etish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa fuqarolarga byudjet mablag'lari qaysi yo'nalishlarga sarflanishini belgilashda ovoz berish huquqini beradi va ularni jamiyat uchun eng dolzarb muammolarni hal qilishga yo'naltirish imkoniyatini ochadi.

2022-yil 1-yanvardan boshlab mahalliy byudjet parametrlariga muvofiq, tuman va shahar ichki yo'llarini ta'mirlash uchun ajratiladigan mablag'larning 50 foizi jamoatchilik fikri asosida aniqlangan yo'nalishlarga "Mening yo'lim" loyihasi doirasida "Ochiq byudjet" axborot portalini orqali yo'naltirilishi belgilandi.

Byudjet jarayonining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida, tuman va shahar hokimliklari har chorak yakuni bo'yicha, chorakdan keyingi oyning 25-sanasiga qadar, jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan loyihalar moliyalashtirilishi haqidagi ma'lumotlarni o'z rasmiy veb-saytlarida hamda "Ochiq byudjet" axborot portalida e'lon qiladi.

Bundan tashqari, hokimlar har chorak yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga mazkur loyihalarning amalga oshirilishi yuzasidan hisobot taqdim etadi. Har bir oy yakunida esa, keyingi oyning 10-sanasiga qadar jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan loyihalarning moliyalashtirilishi va bajarilish jarayoniga oid ma'lumotlar ommaviy axborot vositalari orqali keng jamoatchilikka yetkazilishi belgilangan.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha iqtisodiy faol aholi va bandlar soni<sup>3</sup>

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy iqtisodiy faol aholi soni 14 876,4 ming kishini tashkil etadi. Shundan 13 541,1 ming kishi band, 1 335,3 ming kishi esa ishsiz hisoblanadi. Iqtisodiy faoliik darajasi 75 foizni, bandlik darajasi esa 68,3 foizni tashkil etmoqda. Bu esa shuni anglatadiki, aholining to'rtadan uchta mehnat bozorida faol ishtirok etmoqda, biroq ularning barchasi ish bilan ta'minlanmagan.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, iqtisodiy faoliik darajasi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida (86,9%) kuzatilmoqda. Shu bilan birga, bandlik darajasi ham aynan shu hududda eng yuqori (80,5%) ko'rsatkichiga ega. Qoraqalpog'iston Respublikasida esa iqtisodiy faoliik (69,2%) va bandlik darajasi (63,0%) eng past darajada bo'lib, bu hududda mehnat resurslaridan to'liq foydalanimayotganini ko'rsatadi.

Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarcand, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent viloyati, Farg'on'a va Xorazm viloyatlarida iqtisodiy faoliik odatda 70–77% oraliq'ida bo'lib, bandlik darajasi esa 63–71% atrofida. Bu hududlarda ham iqtisodiy faol aholi va bandlar o'rtafigi tafovut — ya'ni ishsizlik mavjudligini anglatadi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahri iqtisodiy jihatdan eng faol va bandlik darajasi bo'yicha yetakchi hisoblanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida esa ish o'rinalarini ko'paytirish va mehnat bozorini rivojlantirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Farg'on'a va Samarcand viloyatlarida iqtisodiy faol aholi soni yuqori bo'lishiga qaramay, ishsizlik darajasi ham nisbatan yuqoriligicha qolmoqda. Umumrespublika darajasida esa ishsizlik muammosi hanuz dolzarb bo'lib, uni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahalla – bu oddiygina boshqaruvi tizimi emas, balki odamlarning eng yaqin masalalari hal qilinadigan makon. Shu bois kambag'allikni qisqartirishda uning o'rni beqiyosdir. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, mahalla orqali ehtiyojmand oilalarni tezroq aniqlash va ularga yordam yetkazish mumkin. Chunki mahalla odamlarga eng yaqin bo'lgan tizim sifatida ularning muammosini boshqalardan ko'ra yaxshiroq biladi.

Biroq, ba'zan yordam taqsimotida subyektiv yondashuv yoki ma'lumotlarning shaffof emasligi kabi kamchiliklar ham uchrab turadi. Shu sababli, mahalla faoliyatini raqamlashtirish, aniq ma'lumotlar bazasini yaratish va jarayonlarni avtomatlashtirish juda muhim. Bu nafaqat adolatni ta'minlaydi, balki yordamning haqiqiy muhtojlarga yetib borishini ham kafolatlaydi.

Bir so'z bilan aytganda, mahalla instituti imkoniyatlarini kuchaytirish, aholi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish orqali nafaqat kambag'allikni qisqartirish, balki odamlarda jamiyatga bo'lgan ishonchni mustahkamlash ham mumkin. Zero, odamlar o'z mahallasida yordamni, adolatni va e'tiborni his qilganida, bu butun jamiyat taraqqiyotiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

3 <http://iqtisodiyot.tsue.uz>



### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (UNDP). Digitalization and Social Protection: Accelerating Inclusive Development. New York, 2020.
2. World Bank. Identifying and Targeting the Poor Using Digital Platforms: Country Experiences and Emerging Lessons. Washington, 2021. URL: <https://blogs.worldbank.org/ru/opendata/charting-uzbekistan-s-path-to-poverty-reduction--insights-from-i>
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM). Ijtimoiy himoyani raqamlashtirish: muammolar va yechimlar. Toshkent, 2022.
4. Strategik islohotlar agentligi. "Temir daftar" va boshqa elektron reyestrlar orqali manzilli yordam tizimi samaradorligini baholash. Toshkent, 2022.
5. Karimov X., Rasulov S. Raqamli transformatsiya va ijtimoiy himoyaning uyg'unligi. Ilmiy-amaliy jurnal "Ijtimoiy siyosat", №2, 2022.
6. Qodirova E. "Temir daftar" foydalanuvchilari orasida ishonchlilik va qoniqish darajasi: so'rovnama natijalari asosida tahlil. Toshkent, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. Toshkent, 2020. URL: <https://www.stat.uz>
8. United Nations Population Division. World Population Prospects. URL: <https://population.un.org/wpp/Download/Standard/Interpolated/>
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo'jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar o'tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to'g'risida. Toshkent, 2017-yil 22-dekabr, 1011-son.
10. O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonuni.
11. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti. URL: <https://www.stat.uz>
12. Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar, 2021, №1.; Hasanov R., Usmonov B. O'zbekistonda kambag'allik va uni qisqartirish yo'llari.// /review.uz, 2020, 6 mart.
13. Pardaev M.Q., Pardaev O. Mamlakatimizda kambag'allik darajasini kamaytirish yo'llari.// Logistika va ekonomika, 2020, №5; Uzakov K.P. Kambag'allikni qisqartirishda aholi bandligini ta'minlash masalalari.// Academic research in educational sciences, 2021, №10.- 579-594-b; Qirg'izboev M. Kambag'allik – XXI asr muammosi.
14. United Nations Population Division. World Population Prospects. URL: <https://population.un.org/wpp/Download/Standard/Interpolated/>
15. World Bank Open Data Blog. Charting Uzbekistan's Path to Poverty Reduction: Insights from i. URL: <https://blogs.worldbank.org/ru/opendata/charting-uzbekistan-s-path-to-poverty-reduction--insights-from-i>
16. RBC. Финансы: аналитика и обзоры. 18.01.2016. URL: <https://www.rbc.ru/finances/18/01/2016/569c94b69a79475464c4e540>
17. Climate and Development Knowledge Network (CDKN). A Warmer World Will Keep Millions of People Trapped in Poverty. 2013. URL: [https://cdkn.org/2013/06/report-warmer-world-will-keep-millions-of-people-trapped-in-poverty/?loclang=en\\_gb](https://cdkn.org/2013/06/report-warmer-world-will-keep-millions-of-people-trapped-in-poverty/?loclang=en_gb)
18. Голубенко, И.В. Преодоление бедности: зарубежный опыт и российская практика: Автореф. дис. ... канд. экон наук. - М., 2007
19. Воронкова, О.В. Теория и практика государственного регулирования уровня бедности. //Экономические науки, 2008, №8.
20. Сафонов А. Как боролись с бедностью в древности и почему сегодня трудно придумать что-то новое. // getsiz.ru, 2018, 19 июля.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 9**

---

© Materiallar ko'chirib bosinganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod**  
**tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)